

UDK:631.2

O'RMONDAN VA UNING MAHSULOTLARIDAN XALQ XO'JALIGIDA FOYDALANISH.

Oltinov Sobir Hayot o'g'li – “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti “Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari” kafedrasida stajyor-o'qituvchisi

Ismoilov Nurshodbek Sheraliyevich - “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi

Umarov Shamshod Sherzod o'g'li - “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi

Ashurov Shaxob Anvar o'g'li - “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti “Milliy tadqiqot universiteti” Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'rmonning xalq xo'jaligidagi va uning mahsulotlaridan xalq xo'jaligida foydalanish ahamiyati yoritilgan, o'rmon va himoyalaydigan o'rmon daraxtlari o'tqazuvining melioratsiya sohasidagi roli va yerdan samarali foydalanishni ta'minlovchi tadbirlar majmui tarkibida o'rmon meliorativ tadbirlar tarkibi kabi masalalar ochib berilgan.

Абстрактный. В данной статье освещается значение леса в народном хозяйстве и использования его продукции в народном хозяйстве, раскрываются такие вопросы, как содержание.

Abstract. This article highlights the importance of the forest in the national economy and the use of its products in the national economy. Issues such as content are revealed.

Kalit so'zlar: O'rmon xo'jaligi, melioratsiya, o'rmon mahsulotlaridan foydalanish, moddalar muvozanati, yer resurslari, gidroliz, o'rmon melioratsiyasi, o'rmon meliorativ tadbirlar va yerdan samarali foydalanish.

Ключевые слова: Лесное хозяйство, мелиорация, использование лесной продукции, баланс веществ, земельные ресурсы, гидролиз, лесомелиорация, лесомелиоративные мероприятия и эффективное землепользование.

Key words: Forestry, reclamation, use of forest products, balance of substances, land resources, hydrolysis, forest reclamation, forest reclamation measures and effective land use.

Kirish. O'rmondan foydalanish uch xil yo'nalishdan iborat: bosh (asosiy), o'rta (oraliq) va yondosh (yordamchi). Bosh foydalanish – bu daraxtlar o'tqazuvidan pishib – yetishgan yog'och olish, o'rtacha foydalanish – o'rmon daraxtlarini parvarish qilish, ularga ishlov berish (ya'ni butash, kesish va boshq.). Bunday ishlov berishlar pishib – yetishmagan yoshdagi barcha o'rmonlar guruhida amalga oshiriladi (dahlsiz va borib bo'lmaydigan o'rmonlardan tashqari). O'rmon daraxtlaridan o'rtacha foydalanishni amalga oshirish orqali tayyorlanadigan yog'ochlarning yarmidan ko'pini olish mumkin. Himoyalaydigan o'rmon daraxtlari (o'rmon parklari, kurortlardagi o'rmonlar, yo'l suv manbaalari yoqasidagi o'rmon daraxtlari) o'tqazuvida o'rtacha ishlov berish pishib yetishgan o'rmon daraxtlarida ham o'tqazilishi mumkin. O'rtacha ishlov berishdan foydalanish, ayniqsa bosh o'rmon daraxtlari uchun muhim ahamiyatga ega. Bunday ishlov berish, o'rmonning foydali xossalarini oshiradi, yog'ochga nisbatan talabni qondiradi. O'rmon daraxtlari yog'ochi xomashyo sifatida kimyo sanoatida katta ahamiyatga ega, ularni qayta ishlash natijasida har - xil mahsulotlar olinadi. O'rmon yog'ochi sellyuloza beradi, undan qog'oz, karton, uksus kislotasi, dubil moddasi, degot, ko'mir va boshqalar olinadi.

Gidroliz sanoatida o'rmon yog'ochining chiqindilari (qirindi, qipig', mayda shoxchalar) dan keng foydalaniladi. Ulardan bir nechta foydali mahsulotlar – chorva mollariga beradigan ozuqa xamirturishi, etil spirti, suyuq ko'mir kislotasi, quruq lingin kabilar olinadi.

O'rmondan yondosh foydalanish deganda undan chorva uchun yaylov va pichanzor sifatida foydalanish, u yerda ov qilish, asal ari qo'yish, qo'ziqorin, dorivorlar xomashyosini, mevalar to'plash tushuniladi.

Yuqorida aytilgan uch xil ko'rinishdagi foydalanishdan tashqari yaqinda o'rmondan foydalanishning yangicha xillari vujudga keldi: o'rmon melioratsiyasi; rekreatsion foydalanish. O'rmon melioratsiyasi sifatida foydalanish suv rejimini va mikroiklimni yaxshilash, ekinlarni garimsel va kuchli shamollardan, tuproqni suv va shamol eroziyasidan, yo'llarni qum va qor bosishdan, qumlarni esa ko'chishdan, aholi punktlari, ekin maydon va boshqalarni sel kelishidan saqlashni nazarda tutadi.

Rekreatsion foydalanish deganda – o'rmon va milliy bog' (park) lar barpo qilish, ularda ommaviy dam olish va turizmlar tashkil qilish bilan odamlarning jismoniy va ma'naviy sog'lig'ini tiklashni, tabiat manzaralaridan bahramand bo'lishini ta'minlash tushuniladi.

O'rmon resurslaridan foydalanishni tashkil etish O'zbekiston Respublikasining «O'rmon to'g'risida» gi qonuniga muvofiq amalga oshiriladi. Qonunning 4 – moddasida «O'rmonlar davlat mulki – umummilliy boylik bo'lib, ulardan oqilona foydalanish lozim hamda ular davlat tomonidan qo'riqlanadi» deyilgan.

Ushbu qonunga binoan hamma o'rmonlar davlat o'rmon fondini tashkil etadi. Davlat o'rmon fondiga quyidagilar kiradi: davlat ahamiyatiga ega bo'lgan o'rmonlar, ya'ni:

davlat o'rmon xo'jaligi organlari qaramog'idagi o'rmonlar;
boshqa idoralar va yuridik shaxslar foydalanishidagi o'rmonlar.

Qonunning 6-moddasida davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtzorlar va butazorlar qayd qilingan, ular quyidagilar:

- qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardagi daraxtzorlar va to'p-to'p daraxtlar, ekinzorlarning ihota daraxtzorlari, shuningdek boshqa daraxtzorlar va butazorlar;

- temir yo'l, avtomobil yo'llari, kanallar va boshqa suv ob'ektlarining ajratilgan mintaqalaridagi ixota daraxtzorlari;

- shaharlar va boshqa aholi punktlaridagi daraxtlar va to'p-to'p daraxtlar, shuningdek ko'kalamzorlashtirish uchun ekilgan o'simliklar;

- tomorqalardagi va bog' uchastkalaridagi daraxtlar hamda to'p-to'p daraxtlar.

Xulosa. Davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtzorlar va butazorlarni barpo qilish, parvarishlash, qo'riqlash hamda ulardan foydalanish «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida» gi qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. O'rmon fondi yerlariga o'rmon bilan qoplangan yerlar va o'rmon bilan qoplanmagan lekin o'rmon xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlar kiradi. O'rmon fondi yerlarining chegaralari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aniqlanadi. Bu yerlar belgilangan tartibda egalik qilish, foydalanish uchun, jumladan ijaraga berilishi mumkin. Bugungi kunda o'rmon yerlari monitoringini yuritish ishlarida zamonaviy geodezik asboblardan foydalangan holatda kuzatuv ishlarini olib borish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "[O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida](#)" PF-6024-son 10.07.2020
2. A.R. Bobojonov., Q.R. Rahmonov., A.J. G'ofirov. Yer kadastrini// Darslik. TIMI nashriyoti, 2008. 212 b.
3. A.S. Chertovskiy, A.K. Bazarov. Sistema zemlepolzovaniya Uzbekistana. Fan. 2007, 212 s.
4. Volkov S.N. Zemleustroctvo// Uchebnik. T 2: Vnutriozoyatstvennoe zemleustroystvo. M.: Kolos, 2001, 648 str.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni. 2020-yil 7-sentyabr PF-6061
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi qarori 2020-yil 7-sentyabr PQ-4819.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"